

1. Fizika fani o'qituvchisi dars vaqtini oqilona rejalashtiradi, darsning maqsad, shakl va usullarni aniqlab oladi, darslarida qanday tarqatma materiallar zarur bo'lishini oldindan aniqlab oladi, darslarini qaysi fanlar bilan integratsiyalab o'tsa samaraliroq bo'lishini oldindan ko'zlab qo'yadi. Quyida fizika fani o'qituvchisi kasbi standartining qaysi mehnat vazifasini amalga oshirmoqda ?

A) O'quv jarayonini rejalashtirish

- B) Ta'lim samaradorligini ta'minlash
- C) O'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish
- D) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish

2. Quyidagilarning qaysi biri kasb standartining o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish sohasiga kirmaydi?

- 1. Muntazam malaka oshirish kurslaridan o'tish
- 2. O'quvchining munosabati va xulq-atvorini shakllantirishda o'qituvchining ahamiyatini anglashni
- 3. U doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash
- 4. O'zgaruvchan ko'p madaniyatli muhitda o'quvchilarda bag'rikenglik, odob-axloq va hayotga tayyorgarlik bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish
- 5. Seminar va treninglarda, shuningdek kasbiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tadbirlarda qatnashish

- A) 1,2
- B) 2,4**
- C) 1,3,5
- D) 2,5

3. Ingliz tili o'qituvchisi o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda asosan qaysi usuldan foydalanadi?

- A) Grammatik qoidalarini yodlash
- B) Matn tarjima qilish
- C) Kommunikativ usul**
- D) Diktant yozish

Izoh:

Kommunikativ usul — bu tilni haqiqiy muloqot vositasi sifatida o'rgatishga qaratilgan metod bo'lib, o'quvchilarni faol nutqiy faoliyatga jalb etadi. Ushbu usul orqali o'quvchilar turli mavzularda suhbatlashish, savol-javob qilish, rolda o'ynash (role-play), muhokama qilish kabi mashg'ulotlar orqali tilni tabiiy va samarali o'rganad

4. Sinfingizda bir o'quvchi bor. U darslarda faol emas, uy vazifalarini ko'p hollarda bajarmaydi, testlardan past ball oladi. Siz unga yordam bermoqchisiz.

Savol: Siz qanday choralar ko'rasiz?

A. O'quvchini sinfdoshlari oldida tanqid qilasiz, unga jiddiy ogohlantirish berasiz.

B. O'quvchini alohida suhbatga chaqirasiz, muammolarini aniqlashga harakat qilasiz va unga yordam berish rejasini tuzasiz.

C. Uni darslarda kamroq chaqirasiz, ko'proq faol o'quvchilarga e'tibor qaratasiz.

D. Ota-onasi bilan bog'lanib, bolani jazolashni tavsiya qilasiz.

Izoh: O'quvchi bilan alohida suhbatlashish, uning muammolarini aniqlash va individual yondashuv asosida yordam berish — samarali pedagogik yondashuvdir. Bu o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va

ijobiy o'zgarishlarga olib keladi

5. O'qituvchi Pedagogik mahorat doirasida o'z faoliyati haqidagi ma'lumotlarni, kamchiliklarini qayd qilib bordi. Bu jarayonda o'qituvchi kasbiy refleksiya o'z qanday faoliyatni amalga oshirdi?

A) O'z-o'zini bilish

B) O'z-o'zini anglash

C) O'z-o'zini belgilash

D) O'z-o'zini rivojlantirish

Izoh: O'qituvchi o'z faoliyati, yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilib, ularni yozib borayotgan bo'lsa, bu — u o'zini kuzatmoqda, ya'ni o'z-o'zini bilish jarayonini amalga oshirmoqda. Bu kasbiy refleksiyaning birinchi bosqichi hisoblanadi.

✓✓ O'Z - O'ZINI BILISH

Pedagog yutuq va kamchiliklarini shunchaki qayd etib qo'yadi

✓✓ O'Z - O'ZINI ANGLASH

O'ziga tashqaridan qarab, qiyinchiliklari sababini rasmiylashtirish, "Men "ini shakllantirish

✓✓ O'Z - O'ZINI BELGILASH

Kasbiy imkoniyatlarini hisobga olib imkoniyatlari asosida faoliyat rejalashtiradi

✓✓ O'Z - O'ZINI RIVOJLANTIRISH

Mahorati ,usul va metodlari o'sishi sodir bo'ladi

✓✓ O'Z - O'ZINI NAZORAT QILISH

O'Z - o'zini tajriba asosida nazorat qilib, yanada mahoratini takomillashtirishning ikkinchi shakli boshlanadi

6. Moslashtiring

1. Avtoritar uslub

2. Demokratik uslub

3. Liberal uslub

a) - tashabbusiz, eski qolipda pedagogik faoliyat olib boradi;
-sinf jamoasining tarbiyaviy faoliyatiga aslo aralashmaydi;
-ta'lim-tarbiyaga oid muammolarga yuzaki qarab chiqadi.

b) muloqotni tashkil etuvchi O'qituvchi hozirgi zamon talablariga, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan kutilayotgan maqsadlarga javob bera oladi.

c) "Mening aytganim aytgan, deganim degan" shaklidagi prinsip asosida pedagogik faoliyat olib boradi.

A) 1-b, 2-a, 3-c

B) 1-a, 2-b, 3-c

C) 1-c, 2-b, 3-a

D) 1-c, 2-a, 3-b

7. O'qituvchi o'quvchilarga qattiq choralar qo'llaydi. Doimo o'z so'zini o'tkazishga harakat qiladi. Ba'zan o'rtacha o'qiydigan o'quvchi a'lo baho olsa kimdan ko'chirding deya ularni izza qiladi.

Ushbu holatda o'qituvchida qanday muloqot uslubi ko'zga tashlanmoqda?

A) Avtoritar uslub

B) Demokratik uslub

C) Liberal uslub

D) Umumiy uslub

Izoh: Avtoritar uslubda o'qituvchi qat'iy, buyruqboz bo'ladi, o'z fikrini majburan o'tkazishga intiladi, tanqidga toqat qilmaydi, shuningdek, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini cheklaydi. Savolda aynan shunday holatlar tasvirlangan.

8. 9-sinf rahbari o'z sinfi o'quvchilari bilan juda kam ishlaydi. Hozirgi davrda bu o'quvchilarda bo'layotgan o'zgarishlarga juda e'tiborsiz. Yaqinda sinf yigitlari guruh bo'lib mahallaning boshqa bolalari bilan qo'pol munosabatda bo'layotganliklari haqida gaplar tarqaldi. Lekin o'qituvchi maktabdan tashqari jarayonda bo'lgan deb o'quvchilar bilan qo'shimcha suhbatlar o'tkazmadi. O'qituvchida muloqot usulining qaysi biri namoyon bo'lmoqda ?

A) Avtoritar

B) Demokratik

C) Liberal

D) A va B javoblar

холда энг самаралисини танлаб олишга интилади. Муҳокамалар чоғида барча талабаларнинг иштироклари таъминланади. Талабалар томонидан билдирилаётган ташаббуслар қўллаб-қувватланади, мавжуд имкониятлардан келиб чиққан ҳолда бу ташаббуслар амалиётга татбиқ этилади. Бу услубдан фойдаланаётган педагог зиммасидаги вазифа фақатгина талабаларнинг фаолиятини назорат қилиш, тузатишлар киритишдан иборат эмаслигини англаб етади. Асосий эътиборни талабаларнинг ютуқларини эътироф этган ҳолда ёки уларнинг хатоларини ўзларига англаган ҳолда самарали тарбия чорасини кўришга қаратади. Ҳар бир талабанинг ютуғи алоҳида эътироф этиладики, бу эса уларни янги зафарларга эришишга руҳлантиради. Ушбу услубга асосланиб иш кўрадиган педагог ҳар бир талабанинг қизиқишлари ва қобилиятларини ҳисобга олган ҳолда бажариладиган ишларни тўғри тақсимлашга ҳаракат қилади, фаол талабаларни тақдирлаб боришни фаолиятининг асосий йўналиши сифатида белгилайди. Педагог талабалар билан мулоқотни ўрнатишда илтимос, маслаҳатга таяниб иш кўради.

3. Либерал услуб. Одатда бу услуб педагог ва талаба муносабатларининг келишувчанликка асосланишини таъминлайдиган услуб сифатида эътироф этилади. Бу услубга кўра иш юритадиган педагог талабалар томонидан содир этилаётган салбий ҳолатларга ҳам эътибор бермасликка интилади. Талабаларни тартибга чақириш, вазиятдан келиб чиққан ҳолда уларнинг фаолиятини тўғри баҳолаб, жазолаш зарур бўлган вазиятларда ҳам индамасликни одат қилиб олади. Бу эса талабаларнинг одобсиз, ялқов, масъулиятсиз бўлишларига олиб келади. Либерал услубни маъқул кўрадиган педагог талабалар ҳаёти билан мутлақо қизиқмайди, уларнинг фаолиятларига аралашмайди, ҳал қилувчи вазиятларда масъулиятни ўз зиммасидан соқит қилади. Айрим ҳолатларда бир-бирига зид бўлган фикрларни ҳам бирдек маъқуллайди. Бу таҳлитда иш кўрадиган педагог обрўга эга бўлмайди. Чунки унга ишониш мумкин эмас.

Педагогик фаолиятни ташкил этишда педагогнинг нафакат ўзи, балки унинг ижобий таъсири асосида талабалар ҳам мулоқот

- gap qaytaigan, uni o'ringan o'quvchini yoqimaydi,
- aytgan tashakkuri ham buyruqdek chiqadi, so'zlari qattiq va qo'pol;
- o'quvchilarga biror muammoni to'liq tushuntirmasdan talab qiladi.

Avtoritar uslublarda pedagogik faoliyat olib boruvchi o'qituvchi "Mening aytganim aytgan, deganim degan" shaklidagi prinsip asosida pedagogik faoliyat olib boradi. U sinf jamoasi bilan muloqotga kirishishda quyidagi uslublarni qo'llaydi: buyruq, ko'rsatma berish, qattiqqo'llik bilan ishlash, tarbiyaviy jazo turlarini tez-tez qo'llash. O'qituvchi o'quvchilarga bilan muloqot jarayoniga qo'pol, dag'al, do'q-po'pisa, majbur etish qo'rqitish, cho'chitish orqali kirishadi. Ushbu uslub o'qituvchi asab tizimini doimiy taranglashtirib yurishiga sabab bo'lib, uning sog'ligiga putur etkazish mumkin. Natijada o'qituvchi tez charchaydi. Avtoritar usulning ijobiy tomonlari ham bor: ya'ni, ular faqat favqulodda vaziyatlar jarayonida ishlatilishi (yong'inda, suv toshqinida, aholini evakuatsiya qilishda) mumkin. O'qituvchi muloqotining ushbu uslubda boshqarilishi sinf jamoasini tarqoqlikka, hamjihatlikning buzilishiga olib keladi.

Demokratik uslub asosida faoliyat olib boradigan o'qituvchining bosh shiori o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini va ongli intizomni hosil qilishdan iborat. O'qituvchining muloqoti barcha

demokratik talablar asosida quriladi. Zero, «Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi»¹. Ushbu uslubni mukammal egallagan o'qituvchi o'z pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlarni mujassamlashtiradi:

- pedagogik faoliyatda sinf jamoasining fikr mulohazalariga tayanib ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi;
- sinf jamoasining tashabbusini ma'qullaydi, rivojlantiradi, o'quvchilarning erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratadi;
- muloqot jarayonida o'quvchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olib, pedagogik faoliyatida qo'llaydi;
- muloqotga kirishishning asosiy shakllari: iltimos, maslahat berish, samimiy muomala.

Demokratik uslubda muloqotni tashkil etuvchi o'qituvchi hozirgi zamon talablariga, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan kutilayotgan maqsadlarga javob bera oladi. O'qituvchining vazifasi barkamol inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb bilgan holda, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan teng-

9. Sinfingizda bir o'quvchi bor. U darslarda faol emas, uy vazifalarini ko'p hollarda bajarmaydi, testlardan past ball oladi. Siz unga yordam bermoqchisiz.

Savol: Siz qanday choralar ko'rasiz?

A. O'quvchini sinfdoshlari oldida tanqid qilasiz, unga jiddiy ogohlantirish berasiz.

B. O'quvchini alohida suhbatga chaqirasiz, muammolarini aniqlashga harakat qilasiz va unga yordam berish rejasini tuzasiz.

C. Uni darslarda kamroq chaqirasiz, ko'proq faol o'quvchilarga e'tibor qaratasiz.

D. Ota-onasi bilan bog'lanib, bolani jazolashni tavsiya qilasiz.

Izoh: O'quvchi bilan alohida suhbatlashish, uning muammolarini aniqlash va individual yondashuv asosida yordam berish — samarali pedagogik yondashuvdir. Bu o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ijobiy o'zgarishlarga olib keladi

10. O'quvchi chet tilidagi so'zlarni ona tili ta'sirida noto'g'ri talaffuz qilmoqda. Bu holatda o'qituvchi qanday yo'l tutishi maqsadga muvofiq?

A) O'quvchini qattiq tanbeh qiladi.

B) Uning noto'g'ri talaffuzini inkor etib, e'tibor bermaydi.

C) To'g'ri talaffuz namunalarini eshittirib, talaffuz ustida mashqlar tashkil etadi.

D) O'quvchining talaffuzidagi xatoni kulgi ostiga oladi.

Izoh:

O'quvchilar chet tilini o'rganayotganda, tabiiy ravishda ona tilining tovush tizimi ta'sirida bo'ladi. Bu holatda ularni jazolash yoki masxara qilish emas, balki ularni qo'llab-quvvatlab, to'g'ri talaffuzni shakllantirish

11. O'quvchi grammatikani tushunmayotganini sezsangiz, avvalo nima qilasiz?

A) Uni tanbeh qilaman

B) Yangi mavzuga o'tamiz

C) Avvalgi bilimlarini aniqlab, tushunmagan joylarini aniqlayman

D) Darsni to'xtataman

12. Bir o'quvchi nazariy mashqlarni ishlashni yoqtiradi, lekin o'quvchilar bilan muloqot qilishdan qochadi.

O'qituvchi uni muloqotga jalb qilish uchun qanday yo'l tutishi kerak?

A) O'quvchining mustaqil ishlashiga imkon berib, unga qo'shimcha nazariy topshiriqlar berish

B) O'quvchini faqatgina baho orqali rag'batlantirish

C) O'quvchiga kichik guruhli ishlarda yetakchilik rolini topshirish

D) O'quvchini muloqotga majburan jalb qilish

Izoh:

O'quvchi nazariy bilimlarni yaxshi o'zlashtiradi, bu esa uni bilimli o'quvchi sifatida ajratib turadi. O'qituvchi bu kuchli tomonini hisobga olib, uni kichik guruhli ishlarda yetakchi sifatida jalb qilsa, o'quvchi o'zini kerakli his qiladi va muloqotga asta-sekin kirishadi. Bunday yondashuv orqali o'quvchining ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanadi va muloqot qilishga nisbatan ishonchi ortadi.

13. O'quvchi: "Bu fan mening tanlagan kasbimga aloqasi yo'q, men bu fanni o'qishni xohlamayman", — deb darsga bo'lgan qiziqishini yo'qotmoqda. O'qituvchi qanday yo'l tutishi maqsadga muvofiq?

A) O'quvchini o'sha fan bo'yicha imtixon topshirishga majbur ekanini eslatadi.

B) O'quvchining fikrini inkor qilib, faqat topshiriqni bajarishni talab qiladi.

C) O'quvchining tanlagan kasbi va fanning umumiy hayotiy foydasi o'rtasida bog'liqlikni ko'rsatib beradi.

D) O'quvchini darsdan chetlatib, boshqalarga xalal bermaslikni buyuradi.

Izoh:

O'qituvchi har bir fanning hayotiy ahamiyatini tushuntirish orqali o'quvchining motivatsiyasini oshirishi kerak. O'quvchining tanlagan kasbi bilan o'qilayotgan fan o'rtasida bevosita bog'liqlik bo'lmasa ham, bu fan orqali rivojlanadigan tafakkur, tahliliy fikrlash, muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalar kasbiy rivojlanishda muhim rol o'ynashi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining qiziqishini uyg'otadigan tarzda fan mazmunini hayotiy kontekstda tushuntirishi lozim.

14. O'quvchi guruhli ish vaqtida guruhdagi boshqa a'zolar bilan hamkorlik qila olmayapti. O'qituvchi bu vaziyatda qanday yo'l tutishi maqsadga muvofiq?

A) O'quvchini mustaqil ishlashga o'tkazadi

B) O'quvchining bahosini pasaytiradi

C) Guruhdagi boshqa o'quvchilarni almashtiradi

D) O'quvchiga ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan individual yordam ko'rsatadi

Izoh:

Guruhli ish — bu nafaqat bilim almashinuvi, balki o'quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi hamdir. Agar biror o'quvchi guruhda ishlashda qiyinchilikka duch kelsa, o'qituvchining vazifasi uni guruhdan ajratish emas, balki unga ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishdir. Bu o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va kelajakda guruh ishlarida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

15. Rasmiy xat qanday qismlardan iborat bo'ladi?

- A) Kirish, asosiy qism, xulosa
- B) Sarlavha, tanishtiruv, natija
- C) Manzil, murojaat, mazmun, ilova, imzo**
- D) Mavzu, ruxsat, dalil

Izoh: Rasmiy xat quyidagi qismlardan iborat bo'ladi: manzil (kimga yuborilayotgani), murojaat shakli (hurmatli...), mazmun (asosiy qism), ilova bo'lsa ilova qismini ko'rsatish, va yakunda yozuvchi shaxsning ismi, imzosi, lavozimi.

16. Loyiha ishida ikkita shaxsiy adovati bor o'quvchi bir guruhga tushdi. Shunda o'qituvchi nima qilishi kerak ?

- A) Adovatli o'quvchilar yolg'iz o'zi loyiha topshirishi kerak
- B) E'tibor bermaslik kerak, kelishib olgani yaxshi
- C) Ikkalasini ikkita guruhga ajratib qo'yishi kerak
- D) Ikkalasi bilann suhbatlashishi kerak**

Izoh: Sababi, o'quvchilarning shaxsiy adovati loyiha ishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. O'qituvchi vaziyatni tushunishga harakat qilib, muammoni hal qilish uchun ular bilan alohida yoki birga suhbatlashishi lozim. Bu, ijobiy muhit yaratish va hamkorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Qolgan variantlar:

- a) bu o'quvchining yakka ishlashi jamoaviy ish maqsadiga zid bo'ladi.**
- b) e'tibor bermaslik – muammo chuqurlashishiga olib keladi.**
- c) har doim ham guruhni ajratish muammoni hal qilmaydi, balki undan qochish bo'ladi.**